

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA XORIJIY TILLARNI JUMLADAN INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI

**Boboxonova Bog'dagul Erali qizi**  
*O'zbekiston milliy universiteti*  
*Xorijiy filologiya fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola vatanimizdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishning samarali va zamonaviy metodikalarini hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy o'qitish usullarini o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'limda xorijiy til, belgi va rasm orqali o'qitish, o'yinlar orqali o'qitish, ta'lim jarayonida imo-ishoralar, qo'shiqlar yordamida o'qitish, mashg'ulot.*

### KIRISH

Xozirgi kunda xorijiy tillarni bilish konikmasi professional ta'limning ajralmas qismlarining biriga aylanmoqda. Shu jumladan bu jarayon maktabgacha ta'limni ham chetda qoldirgani yo'q. Ta'lim davomida xorijiy tillarni o'rgatish sezilarli darajada oshdi. Bu haqda dinshunos olim, tarix fanlari nomzodi, katta o'qituvchi Natalya Kireeva "Yoki biz hayotga, yoki imtihonlarga tayyorgarlik ko'ramiz. Birinchisini tanlaymiz." deb takidlab o'tdi. Yaqinda Natalya Kireeva mahalliy ta'lim tizimi va printsiplari haqida gapirdi va nima uchun Finlyandiya ta'limi dunyodagi eng yaxshi bilimlardan biri deb qaralishi to'g'risida o'z fikrlarini bildirdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab yanada oshib bormoqda. Zamon talabidan kelib chiqib til o'rganishda o'quvchining yoshi ahamiyatga ega emas. Angaliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloqning ruhini «top-toza paxtaga» o'xshatadi. Uning fikricha, bolaning «top-toza paxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir deb ta'kidlaydi. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarining tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgaralar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir", deb ta'kidlaydi. Qaysidir xorijiy tilni o'qitish, O'rta maxsus va Oliy ta'lim dargohlarida, qolaversa maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ta'limning bir qismiga aylandi. Har bir ota ona borki farzandini kelajagini, baxt-u iqbolini o'ylaydi. Kelajakda zamon bilan ham nafas bo'lgan holda, zamonaviy kasblarni egalashini xohlaydi. Yanikim o'zimiz amalga oshira olmagan ishlarni bolalarimizda ko'rishni istaymiz. Bog'cha yoshidagi bolalarning xotirasi katta yoshdagi insonlarning xotirasidan ancha yaxshiroq va mustahkamroq. Bolalarni yoshlik chog'laridan boshlab chet tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish, xato bo'lsada shu tilda gapirishga harakat qildirish kerak.

Belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli. Kundalik soʻz boyligini targʻib qilishning usullaridan biri- belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli hisoblanadi. Touchtime Internationalning direktori doktor Eleyn Fogel Shneyder rasmdan soʻzga tarjima qilish tilni rivojlantirishga yordam berishini tushuntirib berdi. Yani bu yosh oʻrganuvchilarni yangi tillarni tez va oson oʻzlashtirishida juda katta yordam beradi. Maktabgacha taʼlim bu yosh avlodning taʼlimi va tarbiyasidagi ilk bosqichi hisoblanadi. Toʻgʻri maktabgacha tarbiya dasturi bizning bolalarimizga noyob aqlga mos keladigan tarzda oʻsishi va oʻrganishiga yordam berishi kerak. Ammo bolalar kattalarnikidan farqli ravishda kelajakni, ertani oʻylab oʻrganishmaydi. Ingliz tilidagi dars «shu yerda va aynan hozir» manosida oʻtkazilib borilishi kerak. Bolalar chet tilidagi bolalar yoshiga mos hikoyalar, qoʻshiqlar va turli hil mashgʻulotlarni qiziqish bilan oʻrgansa yoki bajarsa, oʻsha tilni oʻrganishi tezroq va samaraliroq boʻladi. Hamda oʻzlari ishtirokidagi oʻyinlar orqali oʻrgangan maʼlumotlarini mustahkamlab oladilar. Bir tomondan, til bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bogʻliq boʻlishi kerak. Boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan mashgʻulot yoki vazifalar qiziqarli va muhim bolishi kerak.

Oʻyinlar orqali oʻqitish. Boshlangich sinflarda, odatda, chet tillarni oʻrganish hayotiy situatsiya va oʻyinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda oʻrganilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli boladi. Agar oʻyinli-syujetli situatsiyalar orqali chet tili oʻrgatilsa, xonadagi barcha bolalar bajonu-dil ishtirok etishadi, sababi ular shu tarzda oʻsha situatsiyaning bir bolagi ekanligini his etishadi. Oʻquvchilar chet tili bilan, birinchi navbatda, oʻz sinf xonalarida birga "yashaydilar". Shuning uchun xonada yoki sinfda oʻrganilayotgan chet tiliga oid muhit yaratish kerak. Bundan tashqari muloqot ham oʻsha tilda boʻlishi kerak. Bolalar nafaqat yoʻriqnomalarni tushunish bilan cheklanib qolmasdan, balki chet tili orqali oʻz ehtiyojlarini ifodalashlari ham mumkin. Bu shuningdek, ularning asosiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Barcha oʻquvchilar singari, bolalar ham turli xil taʼlim uslublariga ega. Bolalar uchun moʻljallangan taʼlim barcha taʼlim uslublarini hisobga oladi. Taktik va kinestetik oʻrganish turlari oʻquvchidan alohida eʼtibor talab qiladi. Boshlangʻich maktablarda oʻquvchilarning iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq boʻladi. Chet tilini oʻrganish, shuningdek, oʻrganuvchining yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bogʻliqdir. Chet tilini oʻrgatish mobaynida har bir bolani harakati uchun ragʻbatlantirib borish talab etiladi. Ularda akustik, kinestetik, ritmik va vizual farqlashni rivojlantirish kerak. Bolalar tez oʻrganishadi, shuning bilan birgalikda tezda unutishadi. Shuning uchun, nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga doir oʻyin yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qolishiga yordamlashib turish kerak. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli oʻrgatish keng qamrovli usullarni talab qiladi.

Taʼlim jarayonida imo-ishoralardan foydalanishning ahamiyati. Bolalar imo-ishoralarni, yaʼni yuz mimikasi bilan aytilgan soʻzlarni yaxshiroq tushunadilar. Oʻqituvchilar bolalarga buyruq berishayotganda, ragʻbatlantirayotganda,

tushuntirayotgan narsasining muhimligini aytmoqchi bo'lganda yuz imoishoralaridan foydalanishganda bolalar buni tezda tushunishadi. Ingliz tilida bu usul judayam muhim hisoblanadi. Bolalar 3 yoshdan boshlab til o'rganishsa, ular uchun bu ancha qulay vaqtdir: bu yoshdagi bolalar xotira va nutq jihatidan ajralib turadi. Bolaning yoshi qancha kichik bo'lsa, uning so'z boyligi kam hamda talaffuzga bo'lgan ehtiyoj katta bo'ladi. Bolalarga til o'rgatishning har-xil metodikalari mavjud. Misol qilib aytganda, agarda oddiy kundalik sharoitimizda ko'chada, o'qishda yoki uyda chet tilida muloqot qilsak, bola uchun yaxshi najita beradi deb o'ylaymiz ammo bu ko'proq katta yoshdagi bolalar uchun ancha samarali. Chunki ko'p holatlarda bola bunday vaziyatda bu tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishi so'nishi mumkin. Bilamizki kichik yoshdagi bolalar ko'proq o'yin mashg'ulotlariga qiziqishadi shuning uchun chet tilini o'qitishning eng yaxshi usullaridan biri bu o'yin. O'rgatilayotgan mavzu o'yin tarzida tushuntirilsa yoki takrorlantirilsa bu bola xotirasida qolishiga ancha yordam beradi.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, yosh avlodlarimiz, farzandlarimiz yetuk kadr bo'lib yetishlarida avvalambor, maktabgacha ta'limning o'rni beqiyosdir. Biz ta'limni ularning yoshligidanoq boshlashimiz zarur. Biz ularni zamonaviy texnologiyalar va zamonaviy ta'lim tizimi bilan taminlashimiz talab etiladi. Maktabgacha ta'lim jamiyatdagi har bir inson ildizlarining rivojlanishida, yani ularning kelajakda vataniga munosib farzand, yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Biz farzandlarimiz ta'limiga ko'proq e'tibor berishimiz, zamonaviy shart-sharoitlar yaratishimiz, yangi-yangi metodlar orqali ularning o'rganishlariga ko'maklashishimiz zarur. Xorijiy tillarni bilish xozirgi kunda zamon talabi darajasiga ko'tarilgan. Chet tillarini o'rganish bolalarga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ularning malakali kadr bo'lib yetishishida, butun jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bo'lib kamol topishlari uchun ham ahamiyatlidir. Shuning uchun ham bolalarimizga yoshligidan ta'lim berib borishimiz, o'qishga qiziqtirishimiz, jamiyatimizdagi har bir bolani nazardan chetda qoldirmasligimiz, o'rganishga qiynalgan bolalar bilan ham alohida shug'ullanishimiz, turli xil qiziqarli o'yinlar bilan e'tiborlarini tortishimiz, chet tillarini o'rgatish davomida muntazam rag'batlantirib borishimiz ularni kelajakdagi ta'limlari uchun dastlabki qadam boladi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kanton Aargou. Fremdsprachen Lernen und Lehren. Englisch an der Primarschule. Leipzig-2017. S. 238—239.
2. Eine neue Aufgaben - und Leistungsbewertungskultur, U. Gibitz in: Neue Wege im Fremdsprachenunterricht am Beispiel des Rahmenplans für den Englischunterricht in der Orientierungsstufe, L. I. S. A. Schwerin 2001.